lug‘aviy birliklarning muqobillarini mexanik tarzda almashtirish aslo kifoya qilmaydi. Zero, badiiy tarjima shunchaki tillararo konversiya emas, balki madaniyatlararo muloqot va konseptual ko‘chish hodisasidir. Olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilinganda, birinchi navbatda, tarjimondan yuksak lingvomadaniy kompetensiya talab etilishi ayon bo‘ladi. Chunki Aytmatov ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan „ikki bosqichli filtratsiya“, ya’ni, qirg‘iz xalqining milliy tabiati va dunyoqarashining rus tili vositasida ifodalanishi, o‘zbek tarjimonidan vositachi tilda berilgan matn zamiridagi tub turkiy konnotatsiyalarni to‘g‘ri dekodlashni taqzo etadi. Tarjimon ruscha qobiq ichidagi milliy kodlarni aniq ilg‘ab olgandagina, o‘zbek tilida ularning sun’iylikdan xoli, tabiiy va jonli muqobillarini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi.

Shu bilan birga, tarjima jarayonida fleyktiv va agglutinativ tillarning tipologik farqlaridan kelib chiquvchi tizimli-struktur muammolar ham ko‘zga tashlanadi. Rus tiliga xos bo‘lgan, murakkab sintaktik qurilmalar, xususan, sifatdosh va ravishdosh oborotlari bilan kengaygan hamda intonatsion yukka ega bo‘lgan gaplarni o‘zbek tilining ichki qonuniyatlari, tabiati va lisoniy jozibasiga moslab uslubiy jihatdan qayta ishlash zarurati tug‘iladi. Bu bosqichda sintaktik moslashuv usullarini to‘g‘ri qo‘llash matnning dinamikasini oshiradi va o‘zbek kitobxonining asarni xuddi o‘z ona tilida yozilgandek qabul qilishini ta’minlaydi. Nihoyat, bugungi zamonaviy tarjimashunoslik istiqboli nuqtayi nazaridan qaraganda, qiyosiy tahlil zarurati alohida dolzarblik kasb etadi. Kelajakda Aytmatov asarlarining yangi avlod tarjimalarini yaratishda, tarjima bazasi sifatida faqatgina ruscha mualliflik matni bilan cheklanib qolmasdan, imkon qadar qirg‘izcha asl nusxalar va variantlar bilan qiyosiy-tekshiruv tahlillarini olib borish lozim. Bunday keng ko‘lamli va parallel tadqiqot usuli matndagi vositachi til tufayli yuzaga kelgan lisoniy yoki uslubiy siljishlarni bartaraf etishga hamda tarjima sifatini yanada yuqori, sifatli akademik bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aytmatov Ch. Asarlar to‘plami (tarjimonlar: A.Muxtor, I.G‘afurov va b.). Toshkent, “Sharq”, 1998.

(2). G‘afurov I. Tarjima nazariyasi. Toshkent, “Tafakkur”, 2012.

(3). Salomov G‘. Tarjima tashvishlari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

(4). Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, “Fan”, 2005.

(5). Salomov G‘. Til va tarjima. Toshkent, “Fan”, 1966.

(6). Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. Москва, “ЧеРо”, 1999.

(7). Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). Москва, Международные отношения, 1975.

(8). Kamilov N. Tarjima mahorati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.

(9). Safarov Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent, “Akedemnashr’, 2021.

(10). Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, “Fan”, 2013.

(11). Bazarbayeva M. Badiiy tarjimada milliy kolorit muammolari (Ch.Aytmatov asarlari misolida). Filol. fan. nomz. diss. avtoreferati, Toshkent, 2004.

Oripov Alijon Olim o‘g‘li (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi oliy ta’limdan keyingi ta’lim maktabi bosh ilmiy xodimi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi; alijonoripovvv@gmail.com)

BADIIY TARJIMADA ADEKVATLIKNI TA’MINLASHDA LINGVOMADANIY YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy tarjimada adekvatlikni ta’minlashning lingvomadaniy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda badiiy asar tarjimasida milliy-madaniy mazmunni, obrazlilikni va pragmatik ma’noni qayta yaratish bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy masalalar tahlil qilinadi. Realiyalar, frazeologik birliklar, soxta ekvivalentlar va kognitiv tafovutlarning tarjima sifatiga ta'siri qiyosiy-chog‘ishtirma hamda kognitiv-semantik yondashuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari badiiy tarjimada adekvatlik faqat lug‘aviy ekvivalentlik bilan belgilanmasligini, balki asliyatning milliy ruhi, madaniy mazmuni, kommunikativ maqsadi va kitobxon ongida shakllanadigan tasavvurlarni imkon qadar to‘liq qayta yaratishga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, lingvomadaniy nomuvofiqliklar va semantik tafovutlar tarjimada mazmuniy yo‘qotishlar hamda kognitiv dissonansni yuzaga keltirishi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, realiyalar, frazeologizmlar, soxta ekvivalentlar, milliy kolorit, adekvatlik, lingvokulturologiya.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ АДЕКВАТНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация. *В данной статье исследуются лингвокультурологические основы обеспечения адекватности художественного перевода. Рассматриваются теоретические и практические воп-*

росы, связанные с воссозданием национально-культурного содержания, образности и прагматического значения при переводе художественных произведений. На основе сравнительно-сопоставительного и когнитивно-семантического подходов анализируется влияние реалий, фразеологических единиц, ложных эквивалентов и когнитивных различий на качество перевода. Результаты исследования показывают, что адекватность художественного перевода определяется не только лексической эквивалентностью, но и способностью максимально полно передать национальный колорит оригинала, его культурное содержание, коммуникативную направленность и представления, формирующиеся в сознании читателя. Кроме того, обосновывается, что лингвокультурологические несоответствия и семантические расхождения могут приводить к смысловым потерям и возникновению когнитивного диссонанса в процессе перевода.

Ключевые слова: *художественный перевод, реалии, фразеологизмы, ложные эквиваленты, национальный колорит, адекватность, лингвокультурология.*

A LINGUACULTURAL APPROACH TO ENSURING ADEQUACY IN LITERARY TRANSLATION

Annotation. *This article examines the linguacultural foundations of ensuring adequacy in literary translation. It examines the theoretical and practical issues related to the reconstruction of national and cultural content, imagery, and pragmatic meaning in the translation of literary texts. Using comparative and cognitive-semantic approaches, the study explores the impact of culture-specific items, phraseological units, false equivalents, and cognitive differences on translation quality. The findings demonstrate that adequacy in literary translation is determined not only by lexical equivalence but also by the translator's ability to preserve the national spirit of the source text, its cultural content, communicative purpose, and the perceptions formed in the reader's mind. Furthermore, the study argues that linguacultural mismatches and semantic discrepancies may lead to meaning loss and cognitive dissonance in the translation process.*

Keywords: *literary translation, culture-specific items, phraseological units, false equivalents, cultural specificity, adequacy, linguacultural.*

Kirish. Jahon tarjimashunosligida asliyatning milliy-madaniy xususiyatlari, badiiy-estetik qimmati hamda lingvistik o‘ziga xosligini tarjimada qayta yaratish masalasi doimo dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab antropotsentrik tilshunoslikning jadal rivojlanishi natijasida tarjimaga faqat til birliklarini bir tildan ikkinchi tilga ko‘chirish jarayoni sifatida emas, balki turli xalqlarning madaniyati, mentaliteti va dunyoqarashini uzviy bog‘lovchi murakkab lingvomadaniy hodisa sifatida qarala boshlandi. Shu munosabat bilan, badiiy tarjimada milliylikni, muallif uslubini va matnning estetik ta’sir kuchini saqlab qolish bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy masalalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy tarjimada adekvatlik, ekvivalentlik hamda milliy-madaniy xususiyatlarni qayta yaratish masalalari jahon tarjimashunosligida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, A.V.Fedorov, V.N.Komissarov va S.Vlaxov [1–3] kabi olimlar tarjimaning nazariy asoslari, ekvivalentlik, pragmatik moslik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya masalalariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

O‘zbek tarjimashunosligida ham badiiy tarjimada lingvomadaniy birliklarni qayta yaratish masalalari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.Rustamova [4] realiyalar va lingvomadaniy birliklarning tarjima xususiyatlarini, X.Xomidov [5] milliylik, badiiylik, lisoniy adekvatlik hamda soxta ekvivalentlar muammolarini, M.Abdullayeva [9] milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi va ularning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan. R.Shirinova [8] esa kognitiv tarjimashunoslik hamda kognitiv dissonans nazariyasining badiiy tarjimadagi o‘rnini o‘rganib, adekvat tarjimaga erishishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-chog‘ishtirma, tavsifiy, lingvokulturologik va kognitiv-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mahalliy tarjimashunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash maqsadida ularning ayrimlariga batafsil to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, M.Rustamova o‘z tadqiqotida Kobo Abening “Qumdagi xotin” romani va uning o‘zbekcha tarjimasining lingvopoetik xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilgan [4;12–14-b.]. Tadqiqotda, avvalo, asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, inson va jamiyat, ezgulik va yovuzlik, shaxs va borliq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning badiiy talqini yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda asarning tarjima jarayonida milliy-madaniy xususiyatlarni saqlab qolish masalasi ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, yapon lingvo-

madaniyatiga xos bo‘lgan “sensey” kabi realiya birliklarining o‘zbek tilida berilish usullari tahlil qilinib, ushbu birliklarning semantik qamrovi va pragmatik xususiyatlari o‘zbek tilidagi muqobillari bilan qiyoslangan.

“Yapon adabiyotidan o‘girilgan badiiy asarlarda “ustoz” ma’nosidagi yaponcha so‘z o‘rnida “sensey” so‘zini qo‘llash deyarli an’anaga aylangan. Bunda matnning yapon lingvomadaniyatiga xosligi qabariq holda ta’kidlanishi bilan birga, “yangilik”, “ko‘nikilmaganlik”, “g‘ayriodatiylik” ma’nolari ham ta’sirchan tarzda ifodalanganligi sezilib turadi. Masalan, Bu anglashilmovchilik, sensey... o‘kinchli anglashilmovchilik... (262-b) Tarjimada bemalol “sensey” so‘zi o‘rnida “ustoz” so‘zini qo‘llash mumkin edi. Mazkur so‘zning o‘zbek tilidagi muqobili ham aynan ustoz so‘zi bo‘ladi. Biroq mazkur so‘zning realiya sifatidagi qo‘llanishida “sensey” so‘zining yapon lingvomadaniyatidagi semantik ko‘lamining o‘zbek tilidagi ustoz so‘zi ifodalagan ma’no qirralariga ko‘ra, muayyan darajada farqlanishi asos bo‘lgan. Yapon lingvomadaniyatida “sensey” so‘zi murojaat birligi sifatida nisbatan faol qo‘llanadi. Ya’ni, yoshi ulug‘ va notanish kishilarga ham hurmat ma’nosida “sensey” murojaat birligi qo‘llanishi mumkin. O‘zbek tilidagi muqobili bo‘lgan ustoz so‘zi esa bu ma’noda nisbatan chegaralangan”, deydi muallif M.Rustamova.

Mazkur holat realiyalar tarjimasining murakkab va ko‘p qirrali muammo ekanligini ko‘rsatadi. Chunki tarjima jarayonida, bir tomondan, matnning mazmuniy aniqligini ta’minlash, ikkinchi tomondan, asliyatga xos lingvomadaniy xususiyatlarni saqlab qolish zarurati yuzaga keladi. Demak, realiyalar tarjimasida ekvivalentlik masalasi faqat leksik muvofiqlik bilan chegaralanmay, balki muayyan xalqning madaniyati, mentaliteti va kommunikativ an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tarjimondan yuqori darajadagi lingvomadaniy kompetensiyani talab etadi.

Tarjima jarayonida asliyatning milliy ruhi, badiiy-estetik qimmati va lingvistik xususiyatlarini qayta yaratish masalasi bilan bir qatorda, turli darajadagi leksik-semantik nomuvofiqliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, qardosh tillar o‘rtasidagi tarjimalarda til birliklarining shakliy yaqinligi ko‘pincha ularning mazmuniy jihatdan ham to‘liq mos kelishi haqidagi tasavvurni yuzaga keltiradi. Qardosh tillar o‘rtasidagi tarjimalarda yuzaga keladigan lisoniy va lingvomadaniy muammolar jahon tarjimashunosligida V.N. Komissarov [2] tomonidan ham tadqiq etilgan bo‘lib, X.Xomidov [5;15–26-b.] mazkur masalalarni o‘zbek va turk tillari materiallari asosida yanada chuqurroq o‘rganishga harakat qilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Navoiy”, Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanlari hamda O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi tanlanib, ularning turkcha tarjimalari asliyat bilan qiyosiy tahlil qilingan. Muallif tarjimalarning nafaqat mazmuniy muvofiqligini, balki ularning badiiy saviyasi, milliy ruh va koloritni qayta yaratish darajasini ham baholashga intilgan.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, yaqin tillar o‘rtasidagi tarjimalarda til birliklarining tashqi o‘xshashligi ko‘pincha tarjimonni chalg‘itishi mumkin. Xususan, tadqiqotchi “soxta ekvivalentlar” masalasiga alohida e’tibor qaratib, o‘zbek va turk tillarida shaklan o‘xshash, biroq semantik jihatdan farqlanuvchi birliklar tarjimada jiddiy xatolarga olib kelishini ko‘rsatib bergan. Muallif tomonidan keltirilgan “nor” so‘zi bunga yaqqol misol bo‘la oladi (1-jadval).

Mazkur holatni X.Xomidov keltirgan quyidagi misol orqali ham kuzatish mumkin: “Nordek yigit bo‘pti, – dedi quvonib. – Istalovoyda sheppovar ekan” [6;35-b.] jumlasi turk tiliga “Nar gibi delikanlı olmuş. Lokantalarda aşçılık yapıyormuş” tarzida tarjima qilingan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, ushbu tarjima variantida o‘zbek tilidagi “nor” leksemasining shakliy jihatdan turk tilidagi “nar” birligi bilan o‘xshashligi tarjimonni chalg‘itgan. Natijada asliyatda “baquvvat, mard yigit” ma’nosida qo‘llangan obrazli ifoda turk tilida “anordek yigit” mazmunini anglatib, o‘zining badiiy-estetik ta’sirchanligini yo‘qotgan. X.Xomidovning fikricha, turk xalqining milliy tafakkurida kuch-qudrat va mardlik timsoli sifatida qo‘llaniladigan “arslan” leksemasi yordamida “Arslan gibi delikanlı olmuş” shaklida berilishi asliyatdagi obrazlilik hamda milliy-ekspressiv ma’noni adekvat tarzda qayta yaratishga xizmat qilgan bo‘lar edi [6;35-b.].

Ushbu misolni yanada aniqroq yoritish maqsadida biz “nor” leksemasining o‘zbek va turk tillaridagi semantik xususiyatlarini qiyosiy-tahliliy metod asosida tizimlashtirib, jadval shaklida tasnifladik. Bunda leksemaning har ikki tildagi asosiy va ko‘chma ma’nolari, tarjimada qo‘llangan variant, yuzaga kelgan semantik tafovut hamda taklif etilgan adekvat muqobil variant o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, tahlil jarayonida lingvokulturologik va semantik yondashuvlardan foydalanilib, shaklan o‘xshash birliklarning har doim ham mazmun jihatidan ekvivalent bo‘la olmasligi aniqlandi. Natijada “nor” va “nar” birliklari o‘rtasidagi tafovut soxta ekvivalentlarning tarjima jarayonida asliyatning milliy ruhi, obrazliligi va badiiy-estetik qimmatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini namoyon etuvchi muhim misol sifatida baholandi. Shu tariqa, 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar nafaqat alohida bir leksemaning semantik xususiyatlarini, balki yaqin tillar o‘rta-

sidagi tarjimalarda uchraydigan lingvomadaniy va pragmatik muammolarning umumiy mexanizmini ham ochib berishga xizmat qiladi.

1-jadval

“Nor” leksemasining o‘zbek va turk tillaridagi semantik tafovuti

Tahlil mezoni	O‘zbek tilida	Turk tilida	Tarjimadagi muammo
Leksema	*Nor*	*Nar*	Shaklan o‘xshash birliklar
Asosiy ma’nosi	*Erkak tuya*	*Anor*	Semantik nomuvofiqlik
Ko‘chma ma’nosi	*Baquvvat, mard yigit*	Mavjud emas	Milliy obrazning yo‘qolishi
Asliyatdagi jumla	*“Nordek yigit bo‘pti”*	–	Kuch va salobatni ifodalaydi
Tarjimadagi variant	–	*“Nar gibi delikanlı olmuş”*	So‘zma-so‘z tarjima natijasida obraz buzilgan
Tarjimaning qabul qilinishi	Tabiiy va obrazli	G‘ayritabiiy va tushunarsiz	Badiiy ta’sir pasaygan
Muqobil variant	–	*“Arslan gibi delikanlı olmuş”*	Milliy-ekspressiv ma’no saqlanadi
Tarjima hodisasi	Metaforik o‘xshatish	Soxta ekvivalent	Lingvomadaniy nomuvofiqlik

Mazkur misol asosida ko‘rish mumkinki, tarjimada muammo faqat alohida so‘zning lug‘aviy ma’nosida emas, balki uning milliy-madaniy konnotatsiyasini qayta yaratishda ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida “nor” so‘zi kuch-qudrat, mardlik va salobat timsoli sifatida qo‘llansa, turk tilida “nar” birligining bunday semantik qatlami mavjud emas. Shu sababli so‘zma-so‘z tarjima asliyatdagi obrazlilikni yo‘qotib, matnning badiiy ta’sirchanligini susaytiradi.

Shu jihatdan tadqiqot yaqin tillar o‘rtasidagi tarjimalarda tilning qarindoshligi doimo ham tarjima jarayonini yengillashtirmasligi, aksincha, “soxta ekvivalentlar”, milliy kolorit va lingvomadaniy xususiyatlarni qayta yaratish bilan bog‘liq yangi muammolarni yuzaga keltirishini ilmiy jihatdan asoslay-di.

Bizningcha, X.Xomidovning ushbu xulosalari tarjimashunoslikda muhim nazariy ahamiyatga ega bo‘lib, ular turli tillar o‘rtasidagi badiiy tarjimalarda realiyalar, milliy obrazlar va lingvomadaniy birliklarni adekvat talqin qilish masalasi hali ham dolzarbligicha qolayotganini ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish masalalari A.V.Kunin, P.Nevmark va M.Baker [7–8] tadqiqotlarida ham alohida ko‘rib chiqilgan. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolarini tadqiq qilgan olima M.Abdullayeva [9;12–21-b.], Agata Kristi asarlarining o‘zbekcha tarjimalari misolida frazeologik birliklarning semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma metod asosida o‘rganib, tarjimada yuzaga keladigan muammolarni aniqlashga harakat qilgan.

Tadqiqot materiallarini o‘rganish natijasida ma’lum bo‘ldiki, frazeologizmlarni tarjima qilishda asosiy muammo ularning milliy-madaniy mazmunini saqlab qolish bilan bog‘liqdir. Jumladan, ingliz tilidagi “I swear to God” iborasining o‘zbekcha tarjimada “non ursin” tarzida berilishi so‘zma-so‘z tarjimadan voz kechilib, pragmatik ekvivalentlikka erishishga intilish natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda asliyatdagi qasam ichish ma’nosi saqlangan bo‘lsa-da, u o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va nutq madaniyatiga moslashtirilgan.

Shuningdek, tadqiqotda bilvosita tarjimaning ayrim salbiy jihatlari ham ochib berilgan. Xususan, “I’ve given her a sedative to take” jumlasining bilvosita tarjimada “Men unga suv berdim, tinchlanib olish uchun” shaklida berilishi natijasida asliyatdagi “tinchlantiruvchi dori” tushunchasi yo‘qolgan. Bu esa bilvosita tarjimada ayrim semantik komponentlarning tushib qolishi va mazmuniy yo‘qotishlarning yuzaga kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari frazeologik birliklar tarjimasida milliy koloritni saqlash va kommunikativ ta’sirchanlikni qayta yaratish o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Muallifning xulosalari tarjimonning mahorati faqat lug‘aviy ekvivalentlarni topish bilan emas, balki asliyatdagi obrazlilik, emotsional-ekspressiv bo‘yoq va pragmatik ma’nolarni qayta yaratish qobiliyati bilan ham belgilanishini tasdiqlaydi.

M.Abdullayeva tadqiqotida aniqlangan tarjima muammolari qiyosiy-chog‘ishtirma va tasnifiy tahlil metodlari asosida tizimlashtirildi hamda ularning lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari kontent tahlil yordamida baholandi.

2-jadval

M.Abdullayeva tadqiqotida aniqlangan tarjima muammolari va ularning xususiyatlari

Asliyat birligi	Tarjima varianti	Tarjima usuli	Ijobiy jihati	Muammo
I swear to God	Non ursin	Pragmatik moslashtirish	Milliy kolorit saqlangan	Asliyatdagi diniy komponent o‘zgargan
Before God, I didn't know	Xudo haqqi qasam ichamanki	Ma’noviy ekvivalent	Mazmun saqlangan	Uslubiy bo‘yoq qisman o‘zgargan
I’ve given her a sedative to take	Men unga suv berdim	Soddalashtirish	Kitobxon uchun tushunarli	Muhim semantik komponent yo‘qolgan
This fellow Owen whoever he is	Bu Onim deganlari kim ekan	Bilvosita tarjima	Matn o‘qilishi yengillashgan	Ism va mazmun noto‘g‘ri talqin qilingan
Христом Богом клянусь	Non ursin bu haqiqat	Lingvomadaniy moslashtirish	O‘zbek nutq madaniyatiga mos	Asliyatning milliy koloritida transformatsiya yuz bergan

Badiiy tarjimada adekvatlikka erishishga ta’sir etuvchi omillarni kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganish masalasi ham zamonaviy tarjimashunoslikda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, kognitiv tarjimashunoslik va kognitiv dissonans nazariyasining badiiy tarjimadagi o‘rnini R.Shirinova [10;100–119-b.] atroflicha o‘rgangan. Muallif so‘nggi yillarda jahon tarjimashunosligida tilni kognitiv aspektda tadqiq etish, badiiy asar tarjimasini kognitiv nuqtai nazardan talqin qilish hamda adekvat tarjimaga erishishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash masalalari ustida qator olimlar tomonidan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilayotganini ta’kidlaydi. Tadqiqotda kognitiv dissonans fenomenining tarixiy shakllanishi, uning dastlab musiqa sohasida yuzaga kelgani, keyinchalik esa lingvistika va tarjimashunoslik doirasida qo‘llanila boshlagani haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, V.I.Dal, S.I.Ojegov, A.N.Chudinov singari olimlarning lug‘atlarida “dissonans” va “konsonans” tushunchalariga berilgan izohlar tahlil qilinib, mazkur terminlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Muallif tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, badiiy tarjimada yuzaga keladigan kognitiv dissonans, ko‘pincha, asliyat va tarjima tillaridagi madaniy, ijtimoiy hamda lingvistik tafovutlar bilan bog‘liq bo‘lib, u kitobxon ongida asliyatga xos bo‘lmagan tasavvurlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Xususan, Erkin A’zamning “Pakananing oshiq ko‘ngli” [11;18-b.] qissasining fransuzcha tarjimasi misolida “yotoqxona” leksemasining “l’hôtel” [12;18-b.] (“mehmonxona”) tarzida berilishi natijasida fransuz kitobxoni ongida mutlaqo boshqa manzara hosil bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Asliyatda vaqtinchalik talabalar turar joyi yoki yashash maskani ma’nosini anglatgan “yotoqxona” tushunchasi tarjimada “mehmonxona” sifatida talqin qilingani sababli, o‘zbek qizi Arofatning mehmonxonada yashashi haqidagi noto‘g‘ri kognitiv tasavvur yuzaga keladi.

Bizningcha, mazkur misol tarjimada faqat lug‘aviy ekvivalentlikning o‘zi yetarli emasligini, balki kitobxon ongida asliyatdagi voqelikni adekvat tarzda qayta tiklash muhimligini ko‘rsatadi. Shu sababli R. Shirinova “foyer”, “foyer pour étudiants” yoki “résidence universitaire” kabi variantlarni qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligini ta’kidlaydi. Chunki ushbu birliklar fransuz lingvomadaniyatida talabalar turar joyi haqidagi tasavvurlarni to‘g‘ri shakllantiradi va kognitiv dissonansning yuzaga kelishini minimallashtiradi.

Tadqiqotni o‘rganish jarayonida R.Shirinova tomonidan aniqlangan tarjima muammolari kognitiv-semantik hamda qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil asosida tizimlashtirildi. Bunda asliyatdagi birliklar, ularning tarjima variantlari, kitobxon ongida shakllanadigan tasavvurlar va kognitiv dissonansning yuzaga kelish sabablari o‘zaro qiyoslandi.

3-jadval

R.Shirinova tadqiqotida aniqlangan kognitiv dissonans holatlari va ularning xususiyatlari

Asar va muallif	Tarjimon	Asliyatdagi birlik	Tarjima varianti	Retsepient ongidagi tasavvur	Kognitiv dissonans sababi	Taklif etilgan tarjima
Erkin A’zam, “Pakananing oshiq ko‘ngli”	Sh. Minovarov, O. Nabiyeva	Yotoqxona	L’hôtel	Qahramon mehmonxonada yashaydi degan tasavvur	“Yotoqxona” va “mehmonxona” tushunchalarining semantik va madaniy jihatdan farqlanishi	Foyer pour étudiants

		Yotoq-po-toq berar	Une chambre d'hôtel	Vaqtinchalik mehmonxona xo-nasi haqidagi ta-savvur	Milliy muhitning to'liq aks etmas-ligi	Résidence universitaire
		Talabalar yashash jo-yi	Hôtel	Mehmonlar uchun mo'ljal-langan maskan	Lingvomadaniy nomuvofiqlik	Foyer d'hébergement
		Vaqtincha tanishining xonasida turish	Je partage la chambre d'une amie	Fransuz kitobxo-nida mehmonxo-nadagi yashash manzarasi hosil bo'lishi	Madaniy konsept-larning mos kel-masligi	Résidence universitaire yoki foyer

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy tarjimada yuzaga keladigan ko'plab muammolarning asosida lingvomadaniy nomuvofiqlik yotadi. Realiyalar, frazeologizmlar va soxta ekvivalentlarning noto'g'ri talqin qilinishi kitobxon ongida asliyatga xos bo'lmagan tasavvurlarni shakllantirib, kognitiv dissonansni yuzaga keltiradi. Shu sababli adekvat tarjimaga erishishda faqat lug'aviy ekvivalentlik emas, balki lingvomadaniy moslik, pragmatik ekvivalentlik va kognitiv konsonansni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy tarjimada lingvomadaniy birliklarni qayta yaratish jarayoni ko'p bosqichli va murakkab hodisa bo'lib, u tarjimondan nafaqat til tizimini, balki xalqlarning madaniyati, mentaliteti va konseptual dunyoqarashini ham chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun zamonaviy tarjimashunoslikda realiyalar, frazeologizmlar va kognitiv dissonansni o'zaro bog'liq holda tadqiq etish adekvat tarjimaga erishishning muhim nazariy va amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Федоров А.В. Основы общей теории перевода. М., "Высшая школа", 2002.

(2). Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). М., "Высшая школа", 1990.

(3). Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М., "Международные отношения", 1980.

(4). Rustamova M. Abe Koboning "Qumdagi Xotin" asari tarjimasining lingvopoetik xususiyatlari. Fil. fanlari bo'yicha (PhD) diss., Toshkent, 2026.

(5). Xomidov X. O'zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari. Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2021.

(6). Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. Toshkent, 2005, 35-bet.

(7). Newmark P. A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 1988.

(8). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018, 408 p.

(9). Abdullayeva M. Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizmlar tarjimasi muammolari (Agata Kristi asarlarining o'zbekcha tarjimalari misolida). Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2023.

(10). Shirinova R. Badiiy tarjimada olam milliy manzarasi. Fil. fanlari bo'yicha (DSc) diss., Toshkent, 2018.

(11). Erkin A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. T., 2001, 18-bet.

(12). Erkin A'zam. Adieux aux contes de fées. T., 2015, p. 218.

Raximova Sulurxon Djumaniyozovna (Urganch davlat Pedagogika instituti Filologiya fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti)

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI BARQAROR TIL BIRLIKLARINING MADANIY-SEMANTIK TADQIQIGA DOIR

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan barqaror til birliklarining madaniy-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklar, maqol va matallar, iboralar hamda boshqa turg'un birikmalarning mazmuni, ularning milliy-madaniy asoslari, badiiy-estetik vazifasi va konseptual ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu birliklar orqali o'zbek xalqining qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari va ma'naviy merosi qanday aks etgani lingvomadaniy nuqtai nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy tilining boyligi hamda barqaror til birliklarining madaniy-semantik tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, barqaror til birliklari, frazeologiya, lingvomadaniyat, madaniy semantika, turg'un birikmalar, maqol va matallar, badiiy til, konsept, milliy qadriyatlar, o'zbek tili, semantik tahlil.*